

**TA'LIM MAZMUNINI SHAKLLANTIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH
MEXANIZIMI
(YANGI AVLOD DARSLIKLARI MISOLIDA)**

Oriental universiteti Ta'lim menejmenti magistranti

Alimdjanova Aynura

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim mazmuni shakllanishida asosiy bo'g'in hisoblanadigan darsliklar haqida yozilgan. Shuningdek darsliklarni nashr etish borasida xorij tajribalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: darslik, ta'lim, vazifa, nashr, bilim, ko'nikma, malaka

Аннотация: В данной статье написано об учебниках, которые являются основным звеном формирования содержания образования. Был также упомянут зарубежный опыт издания учебников.

Ключевые слова: учебник, образование, задание, публикация, знания, навык, квалификация.

Ilm-fan, texnika ishlab chiqarish hamda texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari uchun yangi avlod darsliklarini yaratishni taqozo etmoqda. Bu kabi o'quv manbalarining yaratilishiga qo'yilayotgan talablardan eng muhimi-ularning mazmunida mavjud ilmiy bilimlar o'z ifodasini topibgina qolmay, shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyati ham ochib berish sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni¹da qator maqsadlar berilgan bo'lib, ta'limda qator zamonaviy yangiliklarni olib kirishga qaratilgan bir nechta vazifalar ham belgilangan:

¹ <https://lex.uz/docs/5841063>

maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratilishi;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirilishi uchun Davlat budjetidan 605 mlrd so'm ajratilishi;

2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi 2019-yil 29-apreldagi 5712-sonli Farmoni², O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-sonli Qonuni³, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4884-sonli Qarori ham shular jumlasindadir.

Ta'lim mazmuni ta'limdagi o'quv dasturlari asosida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmuada o'z ifodasini topadi.

O'quv-metodik majmua – darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua hisoblanadi.

Darslik – davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lim

² <https://lex.uz/docs/4312785>

³ <https://lex.uz/docs/5013007>

oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashridir.

Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

motivatsion vazifa - bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iboratdir. Shuningdek, axborot vazifasi sifatida o'quvchilarga axborotlarni yetkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'z-o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.

muvofiglashtirish vazifasi - material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;

rivojlantiruvchi-tarbiyalovchi vazifasi - darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;

o'qitish vazifasi - darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.

Mashq daftari – darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy

fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma – darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritilgan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lim resursidir. Markazlashtirilgan ta'lim tizimlarida darsliklar ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan har qanday faoliyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ammo, darsliklarning bir o'zi tayyor yechim bo'la olmaydi. Ular faqatgina hu-kumatning ta'lim sohasidagi siyosiy maqsadlariga sezilarli aniqlik kiritishi va amalga oshirilayotgan boshqa choralarni kuchaytirishi mumkin. Darsliklar me'yoriy va uslubiy hujjatlarni hamda sinfdagi amaliy faoliyatga taalluqli yo'riqnomalarni o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Darsliklar islohotlarni amalga oshirishda tashkilotchilar eng avvalo kompetensiyaviy yondoshuvni tadbiq etishga oid vazifalarini bajara olishlari kerak. Buning uchun esa “kompetensiyalar” tushunchasini mukammal anglab olish talab etiladi. Kompetensiyaviy yondoshuv faktlarni eslab qolishga asoslangan yondoshuvdan ko'ra afzalroq ekanligi xususida umumiy hamfikrlik mavjud bo'lsada, bu kompetensiyalar nimani anglatishlarini aniqlab olish tomonga qo'yilgan ilk qadamdir. Jahon amaliyotida kompetensiyalar tushunchasini “kasbiy kompetensiyalar”ga urg'u beruvchi ko'plab

ta'riflari mavjud. Bunday modelda kompetensiyalarning rivojlanishi boshlang'ich sinflarga emas, ko'proq o'rta va yuqori sinflar darajasida ro'y berishi nazarda tutiladi. Kompetensiyalarning o'zlari esa, oldilariga qo'yilgan masalani hal qilishda o'quvchilar olingan bilimlar va ko'nikmalarga suyanib ish ko'rinishlariga imkon beruvchi vositalar sifatida tushuniladilar. Ta'lim dasturlari mazkur yo'nalishlarining kelib chiqishi mehnat dunyosiga tayyorlashga g'oyasiga borib qadaladi va shuning uchun ham ularda asosiy e'tibor aynan o'rta va yuqori sinflarga qaratiladi. Darsliklar borasida davlat siyosatining eng markazlashgan ko'rinishlari Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo (Hindiston, Bangladesh, Shri-Lanka) va Arab dunyosida qo'llaniladi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT)ga a'zo mamlakatlarning aksariyatida davlat tomonidan maktablarda foydalanish uchun bir nechta darslik ma'qullanishi mumkin bo'lgan tizimlar (davlat tomonidan tanlangan darsliklar ro'yxati tasdiqlanadi) yoki nashriyotchilar darsliklarni o'zlarining tijoriy maqsadlariga ko'ra nashr etib, ularni to'g'ridan-to'g'ri maktablarga sotishlari mumkin bo'lgan ochiq bozor tizimlari mavjud.⁴ Sobiq Sovet Ittifoqining bir qator mamlakatlari markazlashtirilgan tizimdan foydalanadilar. Unda darsliklarni nashr etish uch xil bosqichdan iborta bo'ladi: yozish, chop etishga qadar bo'lgan tayyorgarliklar va chop etish. Tojikiston va Qirg'izistonda dastlabki ikki bosqich hukumatning o'zi tomonidan amalga oshiriladi, O'zbekistonda esa har bir bosqich uchun tenderlar o'tkaziladi. Janubiy Koreyada boshlang'ich maktablar uchun darsliklar hukumat tomonidan nashr etilsa, maktab ta'limining keyingi bosqichlarida davlat tomonidan tasdiqlangan darsliklar ro'yxatidan tanlash imkoniyati mavjud bo'lgan yondoshuv amal qiladi.

⁴ O'zbekistonda darsliklar tayyorlanishi, chop etilishi va qo'llanilishi sohasini tartibga soluvchi siyosat tahlili <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/4086/file/Analyses%20of%20textbook%20Uzb.pdf>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYHATI:

1. Muxammedovich Q.F., Muxammedovna Q.M. Technology of work on comparison tasks //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
2. Саидова М., Каримова К. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini masala yechishga o‘rgatish metodi va usullari //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/S
3. Saidova G.E. “Mantiqiy masalalar yechishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash”. pedagogs jurnali 1.1 (2022)